

## ОНА ТИЛИ О'QITISHDA TAFAKKUR MASHQLARINI QO'LLASH USULLARI

*Xakimova Dildora Mukimovna*

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi*

*Farg'ona akademik litseyi*

*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ta'limning yangicha shakliga o'tgan hozirgi sharoitda o'quvchining mustaqil fikrlay bilishi, mustaqil tarzda bilim olishi tobora ko'proq talab qilinadi. O'quvchining mavzuni oson va qulay o'zlashtirishida yangicha pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim sanaladi. Aytish mumkinki, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro savol-javob, garchi eskirgan usul bo'lsa-da, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini o'stirishda kuchli vositadir. O'quvchidan xato bo'lsa ham barcha fikrlarini oxirigacha yetkazib berish so'raladi. Bu holat undagi fikrlash jarayonini kuchaytiradi.

**Kalit so'zlar:** so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, omonim so'zlar, shakldoshlik.

**Abstract:** In the current conditions, which have changed to a new form of education, it is more and more required for the student to be able to think independently and learn independently. The use of new pedagogical technologies is considered important for the student's easy and comfortable mastering of the subject. It can be said that the mutual question and answer between the teacher and the student, although it is an old-fashioned method, is a powerful tool for developing critical thinking skills. The student is asked to deliver all his thoughts to the end, even if there is a mistake. This condition enhances his thinking process.

**Keywords:** types of words according to the relation of form and meaning, homonyms, similarity of form.

**Аннотация:** В нынешних условиях, перешедших на новую форму обучения, от ученика все больше требуется умение самостоятельно мыслить и самостоятельно учиться. Использование новых педагогических технологий считается важным для легкого и комфортного усвоения учеником предмета. Можно сказать, что взаимный вопрос-ответ между учителем и учеником, хотя и является устаревшим методом, является мощным инструментом развития навыков критического мышления. Студента просят изложить все свои мысли до конца, даже если есть ошибка. Это состояние усиливает его мыслительный процесс.

**Ключевые слова:** типы слов по соотношению формы и значения, омонимы, сходство формы.

O`qitish darsliklarida ona tili fanini o`zlashtirishda omonimlik hodisasi hamda so`zning ma`no ko`chishiga duch kelinadi. Ushbu ikki holat tashqi tomondan qaralganda bir xilday tuyuladi, lekin boshqa-boshqa hodisalardir. Bu ikki xil tushunchani tushuntirish bu borada o`quvchida sinchiklab tahlil qilish, fikrlash, tasavvur qilish ko`nikmalari tafakkur darajasini oshiradi.

Omonimlar bir xil aytiladi va bir shaklda yoziladi. Diqqat qilinsa, bu so`zlar anglatgan ma`nolar o`rtasida hech qanday bog`liqlik yo`qligini ko`rish mumkin. Endi ko`p ma`noli so`zlarga kelsak, ular qo`shimcha ma`no yuklatilishi natijasida paydo bo`ladi.


Masalan, “Til” so`zini olaylik: 1) Odam organizmining a`zosi (tili og`ribdi)  
2) So`zlashuv vositasi (tilini tushunmadim) 3) Asir (til tutib kelishadi)  
4) Soatning tili (ruscha “strelka”)

Omonimlardan farqli ravishda ko`p ma`noli so`zlarning har bir ma`nolari ostida ma`lum bir bog`liqlik, aloqadorlik yotadi.


Shu o`rinda omonimlar ko`p ma`noli so`zlarning uchinchi, to`rtinchi va undan keyingi ma`nolari bilan bosh ma`no o`rtasidagi masofa uzayishi va uzilish paydo bo`lishi natijasida vujudga keladi degan, fikr o`rtaga tashlanadi. O`quvchilar esa bu fikrga munosabat bildirishadi.

O`quvchilarga yordam bo`lsin uchun, so`zlarning turkumiga ham e`tiborli bo`lish tayinlanadi.

Ko`chma ma`noda qo`llanib, odamning ko`z haqidagi tasavvuriga yaqin tushunchlarni o`z atrofiga olgan.



Omonimlar esa chegara bilmaydi. Ular turlicha so`z turkumlariga oid bo`lishi mumkin :



Mana shunday tushuntirish va qabul qilishda qiyinchilik tug`diradigan mavzularda ko`proq rasmlardan foydalanish zarur. Zero o`quvchi jarayonni ham ko`rib, ham eshitib qabul qilsa, yuqori samaraga erishish mumkin.

Har bir til lug`atida tovush (harf)lar tarkibi va yozilishi jihatidan bir xil, ammo ma`nosi har xil so`zlar — shakldoshlar mavjud. Ular ma`nolariga ko`ra turli buyum, voqea-hodisa, tushunchalarni anglatadi. Ko`pincha, tovush tarkibiga ko`ra, shakldoshlar bilan ko`p ma`noli so`zlarni ajrata olmaslik hollari uchraydi. Ayrim so`zlar o`zlarining asl ma`nolaridan boshqa ma`nolarga ham ega bo`ladi. Chunonchi, inson organizmidagi a`zo nomlari: *bosh, ko`z, qosh, yuz, burun, og`iz, til, qo`l, oyoq, quloq kabilar* o`zining asosiy leksik ma`nosidan tashqari ko`chma ma`nolarda ham ishlatiladi; ularda ichki ma`no “ip”lari saqlanadi. Masalan: bosh — organizmning bosh qismi — boshqaruvchi ma`nosini anglatadi va xuddi shu *ma`no boshliq, boshqarma, bosh maqola, so`zboshi, yo`lboshi, suv boshi, ishboshi, bir bosh uzum* kabi so`z birikmasi va qo`shma so`zlarda saqlanadi.

Natijada lug`atimiz tarkibida shakli bir, ma`nosi turlicha so`zlar paydo bo`ladi. Shakldoshlik va ko`pma`nolilik orasida farq ham mavjud: shakldoshlarda so`z ma`nolari bir-biriga o`xshamaydi. **Ko`k** – o`simlik, rang, osmon, motam libosi; **olma** - daraxt, meva, buyruq fe`li kabi.

Keldi bahor, pishdi **tut** (meva),  
Tut yesang, shunday ish tut (qil),  
Chug`urchiq kelishin kut,  
Bekorga sinmasin tut (daraxt).

-Ko`p ma`noli so`zlarda so`z ma`nolari bir-biriga yaqin va aloqador bo`ladi: ko`z — ko`rish a`zosi, uzukning ko`zi, derazaning ko`zi, taxtaning ko`zi, ishning ko`zi kabi;  
— shakldoshlarning uslubiy jihatdan nutqda ikki xil anglanishi tushuncha doirasini kengaytiradi: **yuragiga o`t tushdi** — **yuragi yondi**.

Nutqda bir o`rinda so`z, ikkinchisida so`z birikmasini qo`llash bilan so`z o`yini yuzaga kelishi shakldoshlarda ham mavjud:

1. Sotuvchi do`konda **qirq ishni** qilar,  
Savdoda bo`y — endan **qirqishni** o`ylar. Yoki:
2. Deydilarki, **kungaboqar** umr bo`yi **kunga boqar**.

Yuqoridagi birinchi to`rtlik— tuyuqda, qirq ish-“son ot”, qirqish - fe`l, kesish, qisqartirish ko`chma ma`nolarida ishlatilgan.

Ikkinchi matnda kungaboqar - ot,o`simlik, hamda fe`l. Ikkisida ham “ kunga boqar “ shakldoshlardir.

Shakldosh so`zlarni chuqur o`rganish o`quvchilar so`z boyligini oshirish va nutqiy mahoratini yuksaltirishda nozik qochirimplardan foydalanish, ijodiy tafakkur, mustaqil fikrni shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Darsni bunday erkin tarzda tashkillash ancha samarador usul bo`lib, o`quvchilarda o`ziga

ishonch va hurmatni his etishda yordam beradi, bilim bo`shliqlarining kamayishiga olib keladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rustamovna, U. N., & Toxirjonovna, M. O. (2022). Polysemy-Semantic Universal. *International Journal of Culture and Modernity*, 14, 11-15.
2. Umarova N.,Maxmudova O.Tilshunoslikda leksik ma'no va tushunchaning umumiy va xususiy xarakterlanishi. O`zMU xabarlar (2022 1/3)
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O`zbek tilining nazariy grammatikasi — T.: “O`qituvchi”, 1995.
- 4 . Мадаев О. Адабиёт дарслари ва миллий мафкура // Тил ва адабиёт таълими, 1998. – № 2. 14